

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI QO'LLASH MEKANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18796311>

Turg'unova Nigora Dilshod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika yo'nalishi magisrtanti

Email: mrs.turgunova28@gmail.com

Tel +998995980055

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash mexanizmlari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonini takomillashtirishda normativ-huquqiy asoslar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika vositalari, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish hamda monitoring tizimlarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, Finlyandiya va Kanada ta'lim tizimlarining ilg'or jihatlarini tahlil qilinib, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida zamonaviy yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik, tanqidiy tafakkur va funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qilishi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar

zamonaviy pedagogik yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli pedagogika, kreativ fikrlash, ilg'or xorijiy tajriba, umumiy o'rta ta'lim, monitoring tizimi

МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В УЧРЕЖДЕНИЯХ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Тургунова Нигора Дилшод кызы

Джизакский государственный педагогический университет

магистрант направления по Педагогике

Email: mrs.turgunova28@gmail.com

Tel +998995980055

Аннотация

В статье анализируются механизмы организации образовательного процесса в учреждениях общего среднего образования на основе современных педагогических подходов и передового зарубежного опыта. Освещаются вопросы нормативно-правового обеспечения, компетентностного подхода, цифровых педагогических технологий, повышения квалификации учителей и системы мониторинга качества образования. Рассматриваются особенности образовательных систем Финляндия и Канада, а также возможности их адаптации к национальной системе образования. Делается вывод о том, что современные подходы способствуют развитию самостоятельности, креативности, критического мышления и функциональной грамотности учащихся.

Ключевые слова

современные педагогические подходы, компетентностное обучение, личностно-ориентированное образование, цифровая педагогика, креативное мышление, зарубежный опыт, общее среднее образование, мониторинг качества

MECHANISMS FOR IMPLEMENTING MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

Jizzakh State Pedagogical University

Master's student in Pedagogy

Turgunova Nigora Dilshod kizi

Email: mrs.turgunova28@gmail.com

Tel +998995980055

Abstract

This article analyzes the mechanisms for organizing the educational process in general secondary education institutions based on modern pedagogical approaches and advanced foreign experience. The role of legal frameworks, competency-based education, digital pedagogy tools, teacher professional development, and monitoring systems is examined. The educational models of Finland and Canada are analyzed, and the possibilities of adapting their best practices to the national education system are substantiated. The study concludes that modern approaches contribute to the development of students' independent thinking, creativity, critical thinking, and functional literacy.

Keywords

modern pedagogical approaches, competency-based education, student-centered learning, digital pedagogy, creative thinking, foreign experience, general secondary education, quality monitoring

Bugungi kunda ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar raqamli taransformatsiya va globallashuv sababli kuchayib bormoqda. Shu sababli maktablarda ta'lim tizimi, ta'lim jarayoni yuqori cho'qqilarga chiqqan davlatlarga tenglashish uchun zamonaviy talablarni joriy etish kerak. Yangi pedagogik metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni kreativ hal qilishga va guruhlarda ishlashga undaydi. Shu sababli, ta'limda zamonaviy tajribalarni milliy qadriyalar bilan uyg'unlashtirgan holda joriy etish eng aqlli va to'g'ri tanlovdir.

Ta'lim jarayonida ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash mexanizmlari normativ-huquqiy asoslar, metodik ta'minot, o'qituvchilarning malaka oshirishi hamda monitoring tizimlarini o'z ichiga olgan kompleks jarayon sifatida qaraladi.[1]

Bu Qonun yurtimizda ta'limning rivojlanishiga huquqiy asos bo'ladi. Mening fikrimcha ta'limda normativ-huquqiy asoslar, metodik ta'minot, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifatiga e'tibor berish jamiyatda ta'lim jarayonini zamonaviy tashkil etish uchun muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirish, uning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal eta olish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.[2]

Yuqoridagi manbada pedagogik jarayonda o'quvchining shaxsiy fikrini bildirish, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topa olishi o'quvchining jamiyatda yetuk shaxs bo'lib tarbiya topayotganligining belgisi hisoblanadi. Bu vaziyatda milliy pedagogik an'analardan foydalanish, va bularni amaliyotda qo'llay olish darajasiga chiqarish pedagogning o'z natijasiga erishganining belgisi hisoblanadi.

Ko'plab zamonaviy tizimlar nafaqat o'quvchilarni, balki o'qituvchilarni ham rivojlanishga, oldinga harakat qilishga, o'z ustida tinimsiz ishlashga undaydi. Bu metodlar o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlarini bee'tibor qoldirmaydi. Har bir shaxsga individual yondashadi, chunki ularning maqsadi bilim berish bilan birga, o'quvchilarning mahorati, qobiliyati va shaxsiyatini o'stirishdir.

Quyida zamonaviy yondashuvlardan namunalar:

- kompetensiyaviy yondashuv;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;

- faoliyatga asoslangan yondashuv;
- muammoli ta'lim;
- loyihaviy va tadqiqotga asoslangan ta'lim;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash o'quvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishlash, ijtimoiy faoliyat yuritish kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv xalqaro ta'lim tizimlarida samarali model sifatida e'tirof etilgan.[3]

Muallif kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan izohlaydi. Menimcha, aynan kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning bilimni amaliyotga qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishda eng samarali model hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim yoshidagi bolalarda shaxsiyatini o'stirish muhim hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar quyidagilarni o'rganadi:

1. O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim
2. AKT dan foydalanishga asoslangan
3. Loyihaga asoslangan ta'lim
4. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim
5. Muammoga asoslangan ta'lim
6. Faoliyatga asoslangan ta'lim

Zamonaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda raqamli pedagogika vositalari, interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim elementlarini integratsiya qilish muhim omil hisoblanadi. Raqamli transformatsiya ta'lim sifatini oshirish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.[4]

Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar, ta'lim platformalaridan foydalanish va integratsiya qilish eng muhim bosqich hisoblanadi. Bundan tashqari bular to'g'ridan to'g'ri joriy etilmasdan, uni sayqallab jamiyatimizga va milliyligimizga moslab ta'lim tizimimizga joriy etiladi. Shaxsiy qarashimga ko'ra, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu bosqichda o'quvchilar quyidagilarni o'rganadi.

- Mustaqil o'qish
- Kreativ va tanqidiy fikrlash
- Guruh bilan ishlash va muloqot qilish
- Ma'lumot bilan ishlash.

Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning

noodatiy vaziyatlarda original g'oyalar ilgari surishi, muammolarga alternativ yechim topishi hamda mustaqil qaror qabul qila olishini ta'minlaydi. Xalqaro tadqiqotlarda kreativ fikrlash XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etilib, uni shakllantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan.[5]

Mazkur tadqiqot kreativ fikrlashni zamonaviy ta'limning muhim natijasi sifatida belgilaydi. Menimcha, o'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish ularning global raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari:

1. Ish rejani rivojlantirish. Maktab kitoblari va dars o'tish rejalari zamonaviy yondashuvlar asosida yangilash. Ular ko'proq amaliyotga e'tibor qaratishi kerak.

2. O'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish. O'qituvchilar zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanishga tayyor bo'lishi kerak. Malaka oshirish va tajriba oshirish kurslarida, seminar, vebinarlarda qatnashish ularning zamonaviy metod va texnologiyalar bo'yicha tajribasini oshiradi.

3. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. Guruh ishlari, muhokamalar, muammoni hal qilish va taqdimot ishlari o'quvchilarning darsda faolligi va motivatsiyasini oshiradi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish. Raqamli platformalar, elektron resurslar va masofaviy ta'lim elementlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

5. Ta'lim jarayonini monitoring qilish. Zamonaviy baholash tizimlari orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalari muntazam tahlil qilib boriladi.

Kutilayotgan natijalar:

Maktablarda zamonaviy tajribalardan foydalanish bilan quyidagi yutuqlarga olib boradi.

- O'quvchilarda yuqori motivatsiya
- Mustaqil ta'lim mahorati
- Tanqidiy va kreativ fikrlash
- O'qituvchilar va o'quvchilar birgalikda kuchli ishlay oladi
- O'qish va tushunish darajasi yuqoriligi

Finlyandiya ta'lim tizimi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganligi, tenglik tamoyiliga asoslanganligi hamda baholashning rivojlantiruvchi xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatda standartlashtirilgan testlar soni minimal darajada bo'lib, asosiy e'tibor o'quvchilarning individual rivojlanish

trayektoriyasiga qaratiladi. O'qituvchilarga yuqori darajadagi kasbiy mustaqillik berilganligi ham ta'lim sifati barqarorligini ta'minlaydi. Finlyandiya modelida o'quv jarayonini integrativ va fanlararo tashkil etish orqali o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalari shakllantiriladi.[6] Muallif Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyat omillarini tahlil qiladi. Mening fikrimcha, o'qituvchiga ishonch bildirish va baholashni rivojlantiruvchi shaklda tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'li hisoblanadi.

Kanada ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuv, inklyuziv ta'lim va tadqiqotga asoslangan o'qitish metodlari bilan xarakterlanadi. Xususan, Inquiry-Based Learning modeli keng qo'llanilib, o'quvchilar mustaqil izlanish olib borish, muammo qo'yish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Kanada maktablarida o'quv jarayonini tashkil etishda differensial yondashuv, individual o'quv ehtiyojlarini hisobga olish hamda hamkorlikda o'qitish metodlari muhim o'rin tutadi. Bu esa o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.[7] Ushbu hujjatda baholashning adolatli va shaffof tizimini tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Shaxsiy fikrimcha, baholash jarayonining rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Musurmonova O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Zimnyaya I.A. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. – Moskva: Issledovatel'skiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004.
4. UNESCO. Education in a Digital World: Policy Brief. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
5. Sheranova Maryam Bazarbayevna. USING THE HERITAGE OF ABU NASR AL-FARABI IN THE PROCESS OF EDUCATION AND EDUCATION. International scientific-online conference HELSINKI 2025
6. OECD. PISA 2022 Results: Creative Minds, Creative Schools–Paris: OECD Publishing, 2023.

7. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2015.
8. Ontario Ministry of Education. Growing Success: Assessment, Evaluation, and Reporting in Ontario Schools. – Toronto, 2010.